

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 379 sahifa.

2025-yil, 10-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'yidinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидахраловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RISIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	



RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RISIDA

Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

"RealSoft" MCHJ bosh direktori

Email: hikmat@realsoft.uz

ORCID: 0009-0006-2177-2052

Annotatsiya: Ushbu maqolada norasmiy va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning dolzarb muammolari hamda ularga innovatsion yechimlar yoritiladi. Shuningdek, to'lov tashkilotlarining raqamli platformalarida foydalanuvchilar qamrovini kengaytirish, muhim texnologik ustunliklarga erishish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda sarf-xarajatlarni kamaytirish masalalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, raqamli platformalar, kichik biznes, chakana savdo, axborot xavfsizligi, blokcheyn, innovatsion yechimlar, distributsiya, franshiza, raqamli marketing.

Abstract: This article describes the current problems of reducing the informal and hidden economy and innovative solutions to them. Also, the issues of increasing the coverage of users on the digital platforms of payment organizations, achieving important technological advantages, ensuring information security and reducing costs are covered.

Key words: hidden economy, digital platforms, small business, retail, information security, blockchain, innovative solutions, distribution, franchise, digital marketing.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы сокращения неформальной и теневой экономики, и инновационные решения для их решения. Также рассматриваются вопросы расширения охвата пользователей цифровых платформ платёжных организаций, достижения важных технологических преимуществ, обеспечения информационной безопасности и снижения издержек.

Ключевые слова: теневая экономика, цифровые платформы, малый бизнес, розничная торговля, информационная безопасность, блокчейн, инновационные решения, дистрибуция, франшиза, цифровой маркетинг.

KIRISH

Yurtimizda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qonuniy faoliyat yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq yukini va ma'muriy talablarni kamaytirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-son'li qarori mazkur yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, kichik biznesni yanada rag'batlantirish va iqtisodiyotni xufyona faoliyatdan tozalashda muhim natijalar berishi kutilmoqda.

Kelgusi davrda bu islohotlarning samaradorligini yanada oshirish uchun huquqiy, tashkiliy va texnologik mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyati yuzaga chiqmoqda. Shu maqsadda, normativ-huquqiy bazani



soddalashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish hamda tadbirkorlar bilan davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni avtomatlashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilanishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilab, islohotlardan kutilayotgan natijalarga qisqa muddatlarda erishish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilk bosqichlarda norasmiy va yashirin iqtisodiyotning mohiyatini tushunish uchun klassik va empirik ishlarga murojaat qilinadi. Hernando De Soto norasmiy sektorning asosiy omillari va huquqiy to's-to'siqlarning roli haqida tanho va tizimli tahlilni taqdim etgan bo'lib, u iqtisodiy resurslarni formal tizimga integratsiya qilish orqali multipl ta'sirlarni keltirib chiqarishini ko'rsatgan 1989-yilgi ishlari muhim manba hisoblanadi. Schneider va Enste norasmiy iqtisodiyot hajmini o'lchash metodologiyalari va xalqaro taqqoslashlarni rivojlantirgan; ularning 2000-yilgi umumiy survey'i yashirin iqtisodiyotning turli sabablari va o'lchov usullarini ta'riflaydi va elektron platformalar orqali aniqlikni oshirish imkoniyatlarini qayd etadi.

Raqamli texnologiyalar va mobil aloqalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha Aker va Mbiti 2010-yilgi tahlillari telefon va mobil xizmatlarning moliyaviy va bozor integratsiyasiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirlarini ko'rsatadi; bu ishlar platforma asosida amalga oshiriladigan to'lov va identifikatsiya tizimlarining formalizatsiyaga ko'magi haqida empirik asos yaratadi. Tavneet Suri va William Jack 2016-yilda mobil pul tizimlarining kambag'allik va genderga ta'siri bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari orqali mobil moliya vositalari iqtisodchilarning asosiy diqqat markaziga aylanganligini tasdiqlaydi va ushbu mexanizmlar orqali norasmiy iqtisodiy tranzaksiyalarni rasmiy kanallarga olib o'tishning aniq yo'llarini namoyish etadi.

Platforma iqtisodiyoti, gig iqtisod va ishchi munosabatlar bo'yicha so'nggi tadqiqotlar raqamli platformalarning mehnat va xizmat ko'rsatish bozorlarini qayta tashkil etayotganini ko'rsatadi. Graham, Hjorth va Lehdonvirta 2017-yilda platforma mehnatining rivojlanishi va uning rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta'siri haqida tahlillar bergan; ular platformalarning formalizatsiyaga olib kelishi uchun monastir mexanizmlar — identifikatsiya, elektron hisob-varaqlar va avtomatlashtirilgan soliq xabar berish tizimlari — zarurligini ta'kidlaydi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ning 2018-yilgi hisobotlari esa platforma ishchilari va mehnat munosabatlarini tartibga solish bo'yicha siyosiy choralarning zarurligini va platformalar orqali faoliyat yurituvchi subyektlarni ro'yxatga olish, ijtimoiy himoya tizimlariga ulash imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Solish va soliq intizomini oshirish nuqtayi nazaridan OECD va IMF ning digitalizatsiya va soliqqa oid hisobotlari muhim ahamiyatga ega. OECD 2015-yilda raqamli iqtisodiyotning soliqqa oid muammolari va mamlakatlararo hamkorlik zarurligini ta'kidlagan; bu hujjatlar raqamli platformalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni aniqlash va soliq bazasini kengaytirish uchun texnik va normativ instrumentlarni tavsiya qiladi. IMF va Jahon Banki tomonidan e'tirof etilgan amaliyotlar esa elektron to'lovlar, UID/ID tizimlari va real vaqtda integratsiyalashgan ma'lumot almashinuvi orqali norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

Amaliy tadqiqotlar va mamlakat misollarida raqamli platformalarning cheklovlari ham yoritilgan. Raqamli inklyuzivlikning pastligi, raqamli savodxonlik muammolari, infratuzilma notengligi va maxfiylik/suverenitet muammolari platformalarni tatbiq etishda asosiy to'siqlardir. Bundan tashqari, De Stefano va boshqalar platforma ishchilari huquqlari va regulyatorlik bo'yicha tavsiyalar berib, platformalarning faqat texnologik emas, balki institutsional va huquqiy transformatsiyani ham talab qilishini urg'ulaydi.

So'nggi tadqiqotlar (World Bank Digital Dividends 2016-yil va keyingi tahlillar) platforma asosida xizmatlarni kengaytirish, elektron identifikatsiya va mobil to'lovlar orqali quyidagi mexanizmlar orqali norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatlarini ko'rsatadi: bir — ro'yxatga olish va identifikatsiya orqali subyektlarning rasmiy hisobda bo'lishini ta'minlash; ikki — avtomatlashtirilgan elektron hisob-varaqlar va real vaqtda soliq hisobotligi; uch — to'lov infrastrukturasi formallashtirish va elektron tranzaksiyalar orqali nazoratni kuchaytirish. Shu bilan birga, amaliyot muvaffaqiyati uchun regulyatorlar va platforma operatorlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi, maxfiylik va himoya kafolatlari bo'yicha aniq kelishuvlar zarur.

Umuman olganda, adabiyotlar raqamli platformalarni norasmiy va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun samarali vosita sifatida ko'rsatadi, ammo texnologik yechimlar mustaqil ravishda yetarli emas; ular institutsional islohotlar, siyosiy iroda va jamiyatning raqamli inklyuzivligini ta'minlash bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning (World Bank, IMF, OECD) ochiq ma'lumotlar bazalari, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Davlat soliq qo'mitasining rasmiy hisobotlaridan olindi. Analitik qismda qiyosiy, korrelyatsion va regressiya tahlili usullari qo'llanib, raqamli platformalarning norasmiy iqtisodiyotga ta'sir darajasi aniqlangan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonuniy faoliyatning jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagi innovatsion yechimlar taklif etiladi.

1. Naqd pul

Naqd pul haqli ravishda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaning asosiy ozuqasi hisoblanadi. Biroq bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan qabul qilinayotgan to'lovlarning 50–70 foizini naqd pul tashkil etayotgani sababli, bu masalani e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, naqd puldagi savdo hajmini yashirish, ya'ni xaridorga savdo cheki bermaslikning sababi faqat "soliqdan qochish" emas. Kichik tadbirkorlik subyektlarining aksariyati eng soddashaklda, ya'ni aylanmasidan 1–4 foiz soliq to'lab, qonuniy faoliyat yuritishni istaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan naqd puldagi savdo hajmini yashirishga sabab bo'layotgan asosiy omillar quyidagilardir:

a) Yillik aylanmasi bir milliard so'mdan oshganda, soliq va ma'muriy yukning ortishi. Ayniqsa, chakana savdo sohasida realizatsiya qilinadigan mahsulotning tannarxi ham aylanmaga qo'shilishi natijasida aksariyat tadbirkorlar savdo hajmini yashirishga majbur bo'lmoqda. Chakana savdoni distributsiya yoki franshiza tarmog'i orqali vositachilik shaklida tashkil etish ushbu muammoning oqilona yechimi bo'la oladi.

b) Tovarlarini kirim qilishdagi qiyinchiliklar. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 223-moddasiga asosan, rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish soliq bazasini yashirish deb hisoblanadi va yashirilgan soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solinishiga sabab bo'ladi. Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun tovarlarni kirim qilish majburiyatini bekor qilish ushbu muammoni bartaraf etishga yordam beradi.

c) Mehnatga haq to'lashdagi soliq yukining yuqoriligi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 381-moddasiga asosan, jismoniy shaxslarning daromadlariga 12 foiz daromad solig'i, 405-moddasiga asosan esa ish beruvchilarga 12 foiz ijtimoiy soliq solinadi. Oxirgi 12 oydagi eng yuqori rasmiy maoshga nisbatan 3 baravar yoki undan ortiq rasmiy ish haqi to'lagan xodimlarga 6 foiz daromad solig'i keshbeki va ish beruvchiga 6 foiz ijtimoiy soliq chegirmasi berilishi xodimlar hamda haqiqiy ish haqi summasini yashirish holatlarini kamaytirishga samarali yechim bo'la oladi.

2. Xorijiy valyuta

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasiga asosan, tovarlar va xizmatlar uchun xorijiy valyutada to'lovni amalga oshirish taqiqlangan.

To'lovni xorijiy valyutada qabul qilish taqiqlab qo'yilgani oqibatida, deyarli barcha shunday to'lovlar rasmiylashtirilmagan yashirin muomalada aylanmoqda. Tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni xorijiy valyutada qabul qilishga ruxsat berilishi, savdo chekini to'lov valyutasida rasmiylashtirish, Markaziy bank tomonidan to'lov sanasidagi rasmiy kurs bo'yicha hisobga olish hamda onlayn inkassatsiya qilish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilayotgan yashirin iqtisodiyot hajmini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

3. Kartadan kartaga pul ko'chirish (R2R)

Jismoniy shaxsning bank plastik kartasidan boshqa jismoniy shaxsning bank plastik kartasiga pul ko'chirish imkoniyatining mavjudligi, naqdsiz pul aylanmasini ommalashtiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Ammo, ushbu turdagi pul ko'chirmalari ustidan lozim darajada nazorat olib borilmasligi, juda ko'p miqdordagi savdo pullarini ham jismoniy shaxslarning bank plastik kartalari orqali pul ko'chirish yo'li bilan noqonuniy aylanishiga va yashirin iqtisodiyotning ko'payishiga olib keladi.

Raqamli platformalar orqali bank plastik kartasi yoki elektron hamyondan, boshqa bank plastik kartasi yoki elektron hamyonga pul ko'chirishda, to'lov maqsadini tanlash (masalan: savdo, xizmat, qarz yoki beg'araz) yo'lga qo'yilsa hamda pul ko'chirish amalga oshirilgan joy lokatsiyasi ilova qilinsa, naqdsiz pul aylanmasining ommaviyligiga ziyon yetkazmagan holda, kichik tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish va yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada kamaytirishga erishish mumkin.

4. Foydalanuvchilar qamrovini oshirish

2025-yil 1-iyul holatiga mamlakat aholisining 21,2 million nafari mehnatga layoqatli yoshdagilar hisoblanadi. Shundan 4,8 million nafari qonuniy ish haqi olib ishlovchilar, 527 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor, oilaviy korxona va dehqon xo'jaliklari egalari, yana 4,7 million nafari o'zini o'zi band qilganlar bo'lib, 11 million nafardan ortiq mehnat yoshidagi fuqarolarning daromad manbalari qonunan rasmiylashtirilmagan.

Shundan taxminan yarmi, ya'ni 5,5 million nafar aholi O'zbekistonda kichik tadbirkorlik yoki mehnat faoliyati bilan norasmiy band deb hisoblanganda ham, o'zini o'zi band qilgan 4,7 million nafar fuqarolar bilan birgalikda jami 10 million nafarga yaqin kichik tadbirkorlik subyektlari mavjudligi aniqlanadi.

Mahalla yettiligi a'zolari, xususan, mahallada bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga bevosita mas'ul bo'lgan hokim yordamchilari va mahalla bankirlarini jalb etgan holda, rasmiy daromad manbaiga ega bo'lmagan mehnat yoshidagi fuqarolarni nomma-nom xatlovdan o'tkazish hamda ularga qonuniy faoliyat yuritish uchun



qulay shart-sharoitlar yaratish orqali raqamli platformalar foydalanuvchilari qamrovini qisqa muddatda yuqori darajaga yetkazish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda raqamli marketingdan samarali foydalanish orqali Telegram, YouTube, Instagram va boshqa ommabop ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek tarmoqli marketing usulida agentlik xizmatlari uchun yuqori haq to'lash evaziga ham ko'p sonli foydalanuvchilarni jalb etish imkoniyati mavjud.

5. Texnologik imkoniyatlar va innovatsion yechimlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-sonli qarori bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun to'lov tashkilotlarining raqamli platformalari orqali 2030-yil 31-dekabrgacha 5 yillik maxsus huquqiy rejim joriy etildi.

Unga ko'ra, to'lov tashkilotlarining raqamli platformalari orqali yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va to'xtatib turish, soliqlarni avtomatik tarzda hisoblash va to'lash, daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida deklaratsiyalarni avtomatik shakllantirish, operatsiyalarni real vaqt rejimida fiskallashtirish, bank hisobvaraqlarini ochish, ulanish va boshqarish, tovar va xizmatlar realizatsiyasi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, jismoniy shaxslar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar, jumladan, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, soliq va boshqa hisobotlarni avtomatik shakllantirish hamda yuborish, fiskal cheklarni yaratish va berish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, ushbu hujjatga binoan raqamli platformalar orqali masofaviy biometriya vositasi yordamida identifikatsiya qilish va mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborish yo'li bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, shartnomalar, to'lov bo'yicha farmoyishlar, elektron hisobvaraqa-fakturalar va qabul-topshirish dalolatnomalarini (bajarilgan ishlar to'g'risida) elektron raqamli imzodan foydalanmasdan imzolash, elektron hamyonlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish, naqd hamda naqdsiz pul mablag'larini qabul qilish, qayta ishlash va o'tkazish, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun to'lov rekvizitlari hamda matritsali shtrix-kodlarni (QR kodlar) generatsiya qilish, to'lovlarni kontaktsiz "tap to pay" texnologiyasi orqali qabul qilish, integratsiyalashgan bank va to'lov xizmatlari orqali mablag'larni kirim, o'tkazma va chiqim qilish, pul oqimlarini boshqarish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, elektron hamyonlar bankda ochilgan hisobvaraqlarga tenglashtirildi.

Ushbu imkoniyatlar kichik tadbirkorlik subyektlari uchun juda muhim qulaylik bo'lishi bilan birga, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'lida katta qadam sanaladi. Shu bilan birga, bu jarayon to'lov tashkilotlarining raqamli platformalarini ishlab chiquvchilar uchun murakkab texnologik vazifalar va kuchli raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

10 million nafarga yaqin yangi potensial mijoz — kichik tadbirkorlik subyektlarining har biri uchun 40 dan ortiq to'lov tashkilotlari va 30 dan ortiq tijorat banklari o'rtasida bo'ladigan keskin raqobatda quyidagi texnologik va iqtisodiy yechimlardan foydalanish orqali g'oliblar safiga kirish mumkin.

a) Himoyalangan mobil elektron raqamli imzodan foydalanish. O'zbekistonda elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanish keng va samarali yo'lga qo'yilgan. Biroq Davlat xizmatlari markazlaridan olingan amaldagi ERI ni ehtiyotsizlik, oqibatini bilmaslik yoki zarurat sababli uchinchi shaxslarga berib qo'yish holatlari hanuz uchrab turadi. Shu bois to'lovlar va iqtisodiy munosabatlarda ERI dan tashqari, biometrik identifikatsiya qilish hamda SMS-kod yuborish amaliyotidan keng foydalaniladi. Natijada, har bir operatsiyani bajarish uchun o'rtacha ming so'mga yaqin qo'shimcha xarajat qilinadi.

Kichik biznes vakillari uchun bu xarajat sezilarli, chunki 10–20 ming so'mlik operatsiya uchun ming so'm sarf-xarajat asosiy summaning 5–10 foizini tashkil qiladi. Agar bir kunda 1 millionta shunday operatsiya amalga oshirilsa, kuniga 1 milliard so'm, oyiga esa 30 milliard so'm ortiqcha sarf-xarajat yuzaga keladi. Foydalanuvchining mobil qurilmasida yaratiladigan va qurilmadan tashqariga ko'chirib bo'lmaydigan himoyalangan mobil ERI dan keng foydalanish ushbu muammoga oqilona yechim bo'la oladi.

b) SMS o'rniga OTP dan foydalanish. O'zbekistonda turli operatsiyalarni bir martalik SMS-kod orqali tasdiqlash keng tarqalgan. Ammo agar har kuni 1 millionta shunday operatsiya bajarilsa, SMS xizmati uchun kuniga 180 million so'm, oyiga esa 5,4 milliard so'm sarf-xarajat qilinadi.

Foydalanuvchining mobil qurilmasi hamda raqamli platforma serverida himoyalangan holda saqlanadigan 256-bitli token va bir xil algoritim asosida har yarim yoki bir daqiqada amal qiladigan bir martalik kodlar (OTP) tizimini joriy etish orqali SMS xizmatlari uchun ketadigan xarajatlarni sezilarli kamaytirish mumkin.

c) Smart hujjatlar asosida ishlash. Kichik tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ular uchun qonuniy faoliyat yuritishga qulay ekotizim yaratish maqsadida raqamli platformalarda foydalanuvchilarga zarur barcha turdagi hujjatlarni elektron shaklda tez va oson rasmiylashtirish, almashish hamda saqlash imkoniyatini yaratish muhim.

d) Low-code platformalar orqali xizmat ko'rsatish. Tez o'zgaruvchan zamonda va kuchli raqobat sharoitida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat izlanish, balki samarali texnologik yechimlardan foydalanish zarur. Raqamli platformalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri — tezkor va sermahsul ish qurollaridan foydalanishdir.



Kichik biznesga mo'ljallangan raqamli platformalarning mobil ilovalarini FlutterFlow, bekind va veb ilovalarini esa Platon kabi kuchli freymvorklarda ishlab chiqish, ularning raqobatchilarga nisbatan doimiy ustunlikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

e) Blokcheyn texnologiyasini joriy etish. Kiberjinoyatchilik tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda, mablag' va to'lovlarga oid ma'lumotlarni, ayniqsa, millionlab foydalanuvchilarning elektron hamyonlardagi mablag'larini nafaqat tashqi ta'sirdan, balki tizimni ishlab chiqqan yoki unga xizmat ko'rsatayotgan ichki xodimlarning noqonuniy harakatlaridan ham himoyalash nihoyatda muhimdir.

Blokcheyn texnologiyasi ushbu muammoga eng ishonchli yechim bo'lsa-da, yuqori sifatli blokcheyn tizimini joriy etish va doimiy ishlatish infratuzilmaviy hamda dasturiy xarajatlarning ortishiga olib keladi. Shu sababli, amaliyotda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish holatlari hozircha kam. Fast-blockchain.com kabi xalqaro platformalar xizmatidan foydalanish esa ushbu muammolarga eng maqbul yechim bo'la oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlikni rivojlantirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala hisoblanadi. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyot keng tarqalgan kichik biznesni qonuniy faoliyatga rag'batlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratilayotgan imkoniyatlar tahsinga loyiqdir. Maqolada keltirilgan dolzarb muammolar hamda taklif etilgan innovatsion yechimlar mamlakat iqtisodiyotining bugungi va kelgusi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular olib borilayotgan islohotlardan kutilgan natijalarga tezroq va to'liqroq erishish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги ПФ-6098-сон Фармони, 30.10.2020, <https://lex.uz/docs/5073459>
2. Кузатилмайдиган иқтисодиёт: Ўзбекистондаги норасмий ва яширин иқтисодиётни баҳолаш натижалари, Б.А.Бегалов, 07.08.2024, <https://review.uz/oz/post/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-ozbekistondagi-norasmiy-va-yashirin-iqtisodiyotni-baholash-natijalari>
3. Яширин иқтисодиёт: таҳлил ва таклиф, У.Абдуғаниев, 27.01.2024, <https://uza.uz/posts/562167>
4. Яширин иқтисодиёт: келиб чиқиш сабаблари, шакллари ва ўлчаш усуллари, Т.С. Расулов, Ш.С. Егамбердиев, "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журналы. №3, 2020 йил, <https://www.sharqjurnali.uz/files/208/Иқтисод%20ва%20минтақашунослик/456/Яширин%20иқтисодиёт%20келиб%20чиқиш%20сабаблари.%20шакллари%20ва%20ўлчаш%20усуллари.pdf>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 12 августдаги ПҚ-247-сон қарори, 12.08.2025, <https://lex.uz/docs/7681520>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
